

Prezident mahalla hayotini ko'zdan kechirdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon tumanidagi Sadda tagi mahallasida bo'lib, aholi turmushi bilan yaqindan tanishdi.

Bu mahallada 3 ming 600 nafardan ortiq aholi yashaydi. Oilalar yerdan unumli foydalanishning hadisini olgan. Keyingi yillarda "Har bir oila - tadbirdor" dasturi asosida parrandachilik, uzumchilik, issiqxonalar tashkil etilmoqda. Shuningdek, mahalla hududida to'qimachilik korxonasi, oziq-ovqat do'konlari va ustaxonalar bor.

O'tgan yili mahalla binosi yangidan qurilib, ko'chalar ta'mirlandi, ishkomlar barpo etildi.

Aholi bandligini ta'minlash, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish bo'yicha qilinayotgan ishlar bu mahalla hayotida ham sezilmoqda. Buni mahallada ishsizlik kamligi, o'tgan yili birorta ham jinoyat bo'limganida ham ko'rish mumkin.

Davlatimiz rahbari shu yerlik Diyor Mamadaliyev xonadonida mehmon bo'ldi.

Ma'lumki, Andijon viloyatida aholi zinch joylashgan. Uy-joyga talab katta. Jumladan, Mamadaliyevlar uyida ham besh oila yashayotgandi. Shu bois xonadon hovlisida tajriba tariqasida yig'ma uylar qurildi. Ular kamxarj, issiq-sovuq va yong'inga chidamli, qurish ham oson.

Prezident mezbonlarni yangi uylar bilan muborakbod etdi. Binoning loyihasi, qurilish materiallariga e'tibor qaratdi.

- Uy insonning eng asosiy ehtiyojlardan biri. Ham davlat, ham tadbirdorlar tomonidan ko'plab turar joylar qurilayotgani xalqimiz manfaatini ta'minlayapti. Tanlov imkoniyatini kengaytirish uchun, ehtiyojmandlar uchun bunday arzon uylar ham kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bunday uylarni ko'paytirish, ular uchun zarur qurilish materiallarini mahalliylashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Manba